

## BADIY ASARDA MANTIQIY ZIDDIYAT: QAHRAMON XARAKTERI VA ICHKI KECHINMALARI TAHLILI (F.M. DOSTOYEVSKIYNING “AHMOQ” ROMANI VA ANASTASIYA FILIPPOVNA OBRAZI MISOLIDA)

**Ismoilova Barchinoy Zayniddinovna**

Navoiy davlat pedagogika universiteti, Tillar fakulteti,  
O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20656555>

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada badiiy asarlardagi xarakterlar psixologiyasi va ularning ichki dunyosidagi mantiqiy ziddiyatlar masalasi tahlil qilingan. Jahon adabiyotining durdonalaridan biri bo‘lgan F.M. Dostoyevskiyning “Ahmoq” romani hamda undagi bosh qahramonlardan biri Anastasiya Filippovna obrazi misolida inson tabiati tubidagi paradokslar, hissiy inqirozlar va mantiqiy nomutanosibliklarning badiiy ifodasi yoritib berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** badiiy tahlil, mantiqiy ziddiyat, psixologizm, Anastasiya Filippovna, xarakter, ichki kechinma, konflikt, adabiy qahramon.

Badiiy adabiyot — shunchaki hayotiy voqealarning quruq bayoni emas, balki inson ruhiyatining eng murakkab, yashirin va goho mantiqsiz ko‘ringan qirralarini ochib beruvchi ko‘zgudir. Haqiqiy yozuvchi o‘z qahramonini faqat ijobiy yoki salbiy bo‘yoqlarda chizmaydi. Aksincha, inson tabiati tubidagi mantiqiy ziddiyatlarni — mehr va nafrat, mag‘rurlik va o‘z-o‘zini ayblash tuyg‘ularining o‘zaro kurashini ko‘rsatib beradi. Jahon adabiyotida bunday psixologik ziddiyat va murakkab ichki mantiq qonuniyatlarini o‘zida mujassam etgan eng yorqin obrazlardan biri — Fiodor Mixaylovich Dostoyevskiyning “Ahmoq” romanidagi Anastasiya Filippovnadir. Qahramon jamiyatdagi psixologik ahamiyat Anastasiya Filippovna obrazi ilk bor paydo bo‘lgandayoq kitobxonda ham hayrat, ham chalkash tuyg‘ularni uyg‘otadi. U — g‘oyatda go‘zal, aqlli, ammo shu bilan birga qalbi chil-chil bo‘lgan ayol. Uning xatti-harakatlarida mantiqiy izchillik yo‘qdek tuyuladi: u o‘zini qutqarmoqchi, baxtli bo‘lmoqchi bo‘lgan knyaz Mishkinning pokiza sevgisidan qochadi va o‘zini jismoniy hamda ruhiy halokatga yetaklayotgan Rogojin tomon talpinadi. Nima uchun inson o‘z baxtidan qochib, halokatini tanlaydi? Bu yerda adabiy va psixologik mantiq boshlanadi. Anastasiya yoshligida duch kelgan ijtimoiy adolatsizlik, aldov va xiyonat sababli o‘zini “gunohkor” deb hisoblaydi va bu tasavvur uning butun hayotiga ta’sir o‘tkazadi. Uning ichki mantiqiy zanjiri shunday qurilgan: “Men pokiza baxtga loyiq emasman”. Knyaz Mishkin unga rahmdillik, tenglik va toza tuyg‘u taklif qilganda, u buni qabul qilolmaydi, chunki o‘zining mag‘rurligi va ichki asorati buni ko‘tara olmaydi.

Ichki kechinmalar va hissiy ziddiyatlar kurashi Asarda Anastasiya Filippovnaning ichki dunyosi portlashlar va keskin burilishlardan iborat. Bir tomondan, u jamiyatning soxta qonun-qoidalariga, o‘zini sotmoqchi va sotib olmoqchi bo‘lgan pulli insonlarga (Tockiy, Ganya) qarshi isyon qiladi (pul to‘la bog‘lamni otashga tashlash sahnasi bunga yorqin misoldir). Bu uning mag‘rurligi va erkinlik mantiqi. Ikkinchi tomondan esa, u o‘z-o‘zini jazolash, azob chekish orqali qalbini tozalash ssenariysidayashaydi.

Yozuvchi ushbu qahramon nutqi va xatti-harakatlari orqali inson psixologiyasining eng chuqur qatlamlarini tahlil qiladi. Anastasiyaning fojiasi shundaki, uning o‘tkir mantig‘i bilan chuqur jarohatlangan his-tuyg‘ulari o‘zaro murosaga kela olmaydi. U har qadamda o‘zini va atrofida qilganlarini sinovdan o‘tkazadi, go‘yo dunyodan o‘zining haq ekanligiga va ayni paytda

baxtsizligiga tasdiq qidiradi. Uning ruhiyatidagi bu ziddiyat asar oxirida fojiviy yakun topishiga mantiqiy zamin hozirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlardagi mantiqiy ziddiyatlar qahramon xarakterini tirik, hayotiy va ta'sirchan ko'rsatishga xizmat qiladi. Anastasiya Filippovna obrazi orqali Dostoyevskiy inson qalbi naqadar cheksiz, sirlarga boy va ziddiyatli ekanini isbotlab bergan. Maqsadli ravishda yaratilgan bunday badiiy nomutanosibliklar kitobxonni qahramonni shunchaki yuzeza hukm qilishdan to'xtatadi, balki uning ichki kechinmalarini chuqur tahlil qilishga, inson tabiatini idrok etishgaga o'rgatadi. Adabiyotshunoslik va badiiy tahlil mantiqi esa bizga inson ortidagi dardni va qalb murakkabligini ko'ra bilish mahoratini beradi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Dostoyevskiy F.M. Ahmoq (roman). Toshkent: "Yangi asr avlodi",2017.-640b.
2. Yo'ldoshev Q. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Toshkent "Turonzaminziyo"2014.
3. Baxtin M.M. Problemi poetiki Dostoyevskogo. Moskva: "Xudojestvennayaliteratura"1972.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: "Akademnashr"2011.
5. Grossmann L.P. Dostoyevskiy (Jizn zamechatelnix lyudey). Moskva: "Molodaya gvardiya", 1965.